

---

Farg'ona shahrilik besh nafar xotin-qizlar tavsiya asosida talaba bo'lishdi  
**Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda xotin-qizlarga yuksak e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Jumladan, kam ta'minlangan, ehtiyojmand hamda nogironligi bor bo'lgan xotin-qizlarga oliy o'quv yurti talabasi bo'lishlari uchun imtiyoz va qo'shimcha kvotalar ajratilmoqda.**

**Joriy yilda Farg'ona shahrilik besh nafar xotin-qizlarga mazkur imtiyozlar va kvotalar ajratildi. Kuni kecha Farg'ona shahar hokimi o'rinnbosari Dilshodaxon Xolmatova talabalik baxti nasib qilgan xotin-qizlar bilan uchrashdi. Oliy ta'llim muassasalariga qabul qilingan xotin-qizlar ularga berilayotgan e'tibor va yaratilgan imkoniyatlardan mammunliklarini ta'kidlashib, Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.**

2023-08-28 10:40:19